

**“Yaxshidan bog‘ qoladi” degan g‘oya asosida “Eng obod oliy ta’lim muassasasi” mavzusidagi ko‘rik-tanlov hamda “Ko‘chat ekib, bog‘ yarataylik” loyihasi bo‘yicha tarjimonlik fakultetida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan**  
**HISOBOT**

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi “dolzarb 40 kunlik”da 10 tup daraxt va ko‘chatlar ekildi, obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirish ishlarida 30 nafardan ortiq ishchi-xodim va talabalar ishtirot etdi.

Daraxtlarni su‘gorish, ishlov berish, ekilgan ko‘chatlarni parvarishlash ishlari amalga oshirildi.

Barcha guruhlarga hududlar biriktirilib, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini muntazam olib borish yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi.

Obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirish ishlaridan fotolavhalar







Fakultet dekani  
**TARJIMONLIK**  
**FAKULTETI**



A handwritten signature in blue ink, appearing to read "R. Karimov".

R.Karimov

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan  
2021-yil 5-noyabrda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar  
Mahkamasining 2021-yil 4-noyabrdagi 07/1-2628-sonli topshiriq xatida  
belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 463-sonli buyrug'ining  
2-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida ingliz tili birinchi fakultetida  
"Yaxshidan bog' qoladi" degan g'oya asosida "Ko'chat ekib,  
bog' yarataylik" loyihasi doirasidagi o'tkazilgan ko'rik-tanlov**

### **HISOBOTI**

Bugungi kunda yashil olamni saqlash va ko'paytirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Yashil makon" umummilliy loyihasini puxta tayyorgarlik bilan boshlash tashabbusi ilgari surildi. Ushbu loyiha doirasida yiliga 200 million tup daraxt va buta ko'chatlarini ekish va shu orqali shaharlardagi yashil maydonlarni amaldagi 8 foizdan 30 foizga oshirish reja qilingan. Ushbu loyiha asosida ingliz tili birinchi fakultetida "Yaxshidan bog' qoladi" degan g'oya asosida "Ko'chat ekib,bog' yarataylik" loyihasi doirasida fakultet uchun ajratigan xududda 4 turdag'i 37 tup manzarali va mevali daraxtlar shundan 24 tasi igna bargli archalar,6 tasi mevali daraxtlar,7 tasi chala butalar fakultet dekani,dekan muovinlari,kafedra mudirlari,professor-o'qituvchilar,tyutorlar va talabalar ishtirokida ekildi.Xamda daraxtlarga ishlov berilib suv quyildi.Ekilgan daraxtlarga mas'ul qilib 24 tup igna bargli archalar uchun 1-bosqich kafedra mudiri X.Avilova va tyutorlari, 6 ta mevali ko'chatlarga 2-bosqich kafedra mudiri M.Gulyamova va tyutorlar,7 ta chala butalar uchun esa 3-bosqich kafedra mudiri Q.Jabbarova va tyutorlar, fakultet bo'yicha mas'ul qilib dekan muovini N.Lapasov tayinlandi.









Fakultet



dekani I'RINCHI  
FAKULTETI

A.Yuldashev